

KRIMINOLOGIK TADQIQOTLARNING TA'LIM JARAYONI BILAN O'ZARO INTEGRATSIYASIDAGI MUAMMOLAR



A'loxonov Muhammadmirdoxon Adhamxon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasidagi dolzarb muammolar tahlil qilinib, ilmiy-nazariy, qiyosiy, tizimli hamda tahliliy yondashuvlar asosida kriminologik bilimlar, ilmiy izlanishlar va o'quv jarayoni o'rtasidagi uzviylik darajasi baholangan. Natijada kriminologik tadqiqot natijalarining ta'lim dasturlariga yetarli darajada joriy etilmayotgani, amaliyot va nazariya o'rtasida uzilishlar mavjudligi, shuningdek, ilmiy salohiyatdan ta'lim sifatini oshirishda to'liq foydalanilmayotgani aniqlanib, mazkur muammolarni bartaraf etishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kriminologiya, kriminologik tadqiqotlar, ta'lim jarayoni, ilmiy integratsiya, kriminologik bilim, metodologiya, ilmiy salohiyat, amaliyot, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные проблемы интеграции криминологических исследований в образовательный процесс и оценивается уровень согласованности между криминологическими знаниями, научными исследованиями и образовательным процессом на основе научно-теоретического, сравнительного, систематического и аналитического подходов. В результате выявлено, что результаты криминологических исследований недостаточно внедряются в образовательные программы, существуют разрывы между практикой и теорией, а также научный потенциал не в полной мере используется для повышения качества образования, и выдвинуты предложения по устранению этих проблем.

Ключевые слова: современная криминология, криминологические исследования, образовательный процесс, научная интеграция, криминологические знания, методология, научный потенциал, практика, инновационный подход.

Abstract. This article analyzes the current challenges in integrating criminological research with the educational process. Based on scientific-theoretical, comparative, systemic, and analytical approaches, it assesses the degree of cohesion between criminological knowledge, scientific inquiry, and the educational process. The analysis reveals that the findings of criminological research are not sufficiently incorporated into educational programs, that gaps exist between practice and theory, and that scientific potential is not fully utilized to improve the quality of education. Consequently, proposals are put forward to address these issues.

Keywords: modern criminology, criminological research, educational process, scientific integration, criminological knowledge, methodology, scientific potential, practice, innovative approach.

Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikni ilmiy asosda o'rganish, uning sabablari, shart-sharoitlari, tendensiyasi va oldini olish mexanizmlarini aniqlash kriminologiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kriminologiya nafaqat jinoyatchilikni tavsiflovchi nazariy fan, balki ijtimoiy xavflarni oldindan aniqlash, zarur profilaktik choralarni ishlab chiqish va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga

xizmat qiluvchi amaliy-tadqiqiy yo'nalish sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois kriminologik tadqiqotlar natijalarini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy va pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'lim tizimida, ayniqsa huquqshunoslik, kriminologiya, sotsiologiya, psixologiya, axborot texnologiyalari va xavfsizlik yo'nalishlarida ta'lim

mazmuni zamonaviy ilmiy natijalar bilan mun-tazam boyitilib borilmasa, o'quv jarayoni nazariy jihatdan eskirish, amaliy ehtiyojlardan uzilish va real kriminogen jarayonlarni anglashda sustlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, kriminologik tad-qiqotlar ta'lim bilan uzviy bog'langan taqdirda talaba-o'quvchilar va bo'lajak kadrlarda jinoyat-chilik hodisasini kompleks tahlil qilish, omillarni aniqlash, ilmiy prognozlash va profilaktika mexa-nizmlarni ishlab chiqish bo'yicha mustahkam kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa ta'limning sifati va amaliy qiymatini oshirish bilan birga, ilmiy faoliyatning institutsional samaradorligini ham kuchaytiradi.

Shunga qaramay, amaliyot shuni ko'rsat-moqdaki, kriminologik tadqiqotlar va ta'lim jarayoni o'rtasida zarur darajadagi integratsiya hamma vaqt ham ta'minlanmagan. Bir tomondan, ilmiy tadqiqotlarda shakllangan yangi nazariy qarashlar, empirik ma'lumotlar va tahlili xulosalar o'quv dasturlari, darslik va o'quv-metodik materiallarga tezkor hamda tizimli kiritilmaydi. Ikkinchi tomo-ndan, ta'lim jarayonida ko'plab hollarda krimino-logiya statik, ya'ni faqat nazariy tushunchalar majmui sifatida o'qitiladi, uning real ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq tadqiqiy xususiyati yetarli darajada namoyon etilmaydi. Natijada talabalar tayyor bilimni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida shakllanadi, biroq mustaqil tahlil qiluvchi, empirik ma'lumot bilan ishlovchi va ilmiy xulosa bera oluvchi mutaxassis sifatida yetarli darajada rivojlanmay qolishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda kriminologik tadqiqot-larning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasida mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabab-larini aniqlash hamda amaliy yechimlar ishlab chiqish maqsadida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy metodlardan, xususan tizimli yondashuv, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi mavzuning kompleks tabiatidan kelib chiqib shakllantirildi, chunki kriminologik ta'lim va ilmiy tadqiqotlar integratsiyasi bir vaqtning o'zida huquqiy, pedagogik, sotsiologik, tashkiliy hamda metodik jihatlarni qamrab oladi. Shu sababli mazkur maqolada bir yoqlama yondashuv emas, balki ko'p omilli va tizimli metodologik model qo'llanildi.

Tadqiqotning metodologik ishonchliligini ta'minlash maqsadida qo'llanilgan metodlar o'zaro uyg'unlikda ishlatildi. Ya'ni, nazariy tahlil orqali tayanch tushunchalar ochib berildi, tizimli yondashuv orqali ularning o'zaro aloqasi aniq-lashtirildi, qiyosiy va mantiqiy tahlil yordamida muammoning ichki tuzilishi yoritildi, tasniflash usuli esa natijalarni tartibga solish imkonini berdi. Mazkur metodologik kombinatsiya maqolaning ilmiy mantiqiyligini, strukturaviy izchilligini hamda amaliy ahamiyatini kuchaytirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, krimino-logik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasi murakkab, ko'p qatlamli va tizimli muammo sifatida namoyon bo'ladi. O'rganishlar asosida aniqlanishicha, bu muammo yagona bir omil bilan emas, balki ilmiy faoliyat, o'quv jarayoni, metodik ta'minot, tashkiliy mexanizmlar va kom-petensiyaviy yondashuvlar o'rtasidagi uzilishlar bilan bog'liqdir. Tadqiqot davomida integratsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy muammolar ***institutsional, metodik, maz-muniy, tashkiliy-amaliy va kompetensiyaviy*** yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi.

1. *Institutsional muammolar: kriminologik tadqiqot va ta'lim o'rtasidagi tizimli uzilishlar.* Ya'ni, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan o'quv jarayonini bog'lovchi rasmiy va doimiy mexanizmlar ko'plab hollarda yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Odatda ilmiy tadqiqotlar alohida akademik faoliyat sifatida, o'quv jarayoni esa undan nisbatan mustaqil faoliyat sifatida tashkil etiladi. Natijada tadqiqot natijalari o'z vaqtida o'quv dasturlariga, darsliklarga, seminar mashg'ulotlariga va mustaqil ta'lim topshiriqlariga singdirilmay qoladi. Bundan tashqari ilmiy tadqiqot olib boruvchi subyektlar bilan ta'lim beruvchi subyektlar o'rtasidagi funk-sional yaqinlik hamma vaqt ham ta'minlanmaydi. Masalan, tadqiqot institutlari, aql markazlari, amaliyot organlari va ta'lim muassasalari o'rtasida uzviy hamkorlik mexanizmlari sust bo'lsa, tala-balar (kursantlar) zamonaviy kriminologik izlanish-lardan bevosita xabardor bo'lmaydi. Shu sababli o'quv jarayonida ko'pincha umumiy nazariy bayonotlar ustun keladi.

2. *Metodik muammolar: tadqiqotga asos-langan ta'lim texnologiyalarining yetarli rivoj-lanmaganligi.* Kriminologik tadqiqotlarni ta'lim

jarayoniga integratsiya qilish faqat ilmiy ma'lumotni darslikka kiritish bilan cheklanmaydi, bu avvalo, o'qitish metodlarining tadqiqotga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi. Biroq amaliyotda kriminologiya ko'pincha ma'ruza, tayyor nazariy ma'lumot va normativ qoidalarni tushuntirish doirasida o'qitiladi. Bunda talaba(kursant)ning mustaqil tahlil qilishi, empirik material bilan ishlashi, jinoyatchilik ko'rsatkichlarini talqin etishi va ilmiy xulosa chiqarishi uchun yetarli metodik muhit yaratilmaydi.

3. *Mazmuniy muammolar: ilmiy natijalarning o'quv dasturlarida yetarli aks etmasligi.* Ushbu muammo ilmiy tadqiqotlarda erishilgan yangi xulosalar, tushunchalar, empirik ma'lumotlar va nazariy yondashuvlarning o'quv mazmunida yetarli ifodalanmasligi bilan bog'liq. Kriminologik tadqiqotlar ko'pincha jinoyatchilikning yangi ko'rinishlari, transformatsiyalashayotgan omillari va profilaktik mexanizmlarini ochib beradi. Biroq bu yangiliklar darslik, o'quv qo'llanma, fan dasturiga juda sekin kirib boradi.

4. *Tashkiliy-amaliy muammolar: talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish mexanizmlarining sustligi.* Mazkur muammo, avvalo, talaba (kursant) larning bevosita ilmiy faoliyatga jalb etilishi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganida namoyon bo'ladi. Ko'plab hollarda talabalar tayyor ilmiy natijalarni o'rganadi, biroq ularni ishlab chiqish, kuzatish, tahlil qilish, izohlash va xulosa chiqarish jarayonida faol ishtirok etmaydi. Bu esa ta'limning tadqiqotga asoslangan modelini zaiflashtiradi.

5. *Kompetensiyaviy muammolar: tahlil va tadqiqot ko'nikmalarning yetarli shakllanmasligi.* Kriminologiya sohasida kompetensiya faqat bilim emas, balki bilimdan foydalanish qobiliyatidir. Integratsiyalashmagan ta'lim modelida talaba (kursant) ko'proq tushunchalarni bilib oladi, biroq "nima uchun?", "qanday omillar ta'sir qilgan?", "qanday oldini olish mumkin?", "qaysi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi?" kabi tahliliy savollarga javob berish darajasi sust bo'ladi. Demak, ta'lim va tadqiqot o'rtasidagi uzilish bevosita kasbiy kompetensiyalar sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tahlilga tayana olmaydigan mutaxassis profilaktik chora-tadbirlarni ham umumiy, formallashtirgan yoki empirik asosdan uzilgan holda ishlab chiqishi mumkin. Shu ma'noda, kriminologik ta'limdagi

kompetensiyaviy tuzilish akademik muammo bo'lish bilan birga, ijtimoiy xavfsizlikka ham ta'sir qiluvchi strategik muammodir.

Mazkur tadqiqot natijalari kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasidagi muammolar tasodifiy yoki alohida pedagogik kamchiliklardan iborat emasligini, aksincha, ularning tizimli va ko'p darajali xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida aniqlangan natijalarni chuqurroq talqin qilish shuni anglatadiki, kriminologik ta'lim va ilmiy tadqiqotlar o'rtasidagi uzilish faqat dars jarayonini takomillashtirish masalasi emas, balki kriminologik bilimning yaratilishi, uzatilishi, o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi o'rtasidagi murakkab zanjirning to'liq ishlamayotganidan dalolat beradi. Shu sababli muhokamada mazkur integratsiya muammosi faqat ta'lim nazariyasi nuqtai nazaridan emas, balki kriminologik fan taraqqiyoti, akademik institutlashuv (institutsional shakllanish), ilmiy salohiyat va ijtimoiy amaliyotning o'zaro aloqasi nuqtai nazaridan ham baholanishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, institutsional muammolar integratsiya jarayonining eng boshlang'ich va eng chuqur qatlamini tashkil etadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari va amaliyot subyektlari o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlari mavjud bo'lmasa, metodik yoki mazmuniy islohotlar ham yuzaki xarakter kasb etib qoladi. Kriminologiya fanining o'ziga xosligi shundaki, unda ilmiy natijalar tez eskirishi yoki zamonaviy kriminogen tendensiyalar ta'sirida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Muhokama nuqtai nazaridan bu shuni anglatadiki, kriminologik ta'limni rivojlantirishda "fan alohida, ta'lim alohida" tamoyili samarasiz bo'lib, uning o'rniga **"ilmiy natija – o'quv mazmuni – kasbiy kompetensiya"** zanjirini yaratish zarur.

Mazkur jihatni chuqurroq talqin qilganda, ilmiy bilim faqat maqola, hisobot yoki tahliliy xulosalarda qolib ketmasligi, balki auditoriyaga kirib borishi, talaba (kursant) tafakkurida qayta ishlanishi va keyinchalik yangi tadqiqotlar uchun intellektual baza yaratishi kerak. Agar bu aylanish mexanizmi ishlamasa, ta'lim reproduktiv tus oladi, ilmiy faoliyat esa tor professional doirada cheklanib

qoladi. Shu ma'noda, integratsiya masalasi pedagogik muammo bo'lish bilan birga, ilmiy bilimning ijtimoiy hayotdagi "harakat mexanizmi" bilan ham bog'liqdir.

Shu nuqtada tadqiqot natijalari asosida bir muhim nazariy xulosa chiqarish mumkin: kriminologik tadqiqotlar va ta'lim o'rtasidagi integratsiya modelini uch bosqichli mexanizm sifatida ko'rish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich – *ilmiy ishlab chiqish*, ya'ni kriminologik bilimlarning nazariy va empirik shakllanishi. Ikkinchi bosqich – *pedagogik transformatsiya*, ya'ni ilmiy natijalarni o'quv mazmuni, metodlari va topshiriqlariga moslashtirish. Uchinchi bosqich – *kompetensiyaviy internalizatsiya* (ichki o'zlashtirish), ya'ni talaba (kursant)ning ushbu bilim va yondashuvlarni kasbiy ko'nikma, tahliliy tafakkur va amaliy xulq-atvorga aylantirishi. Agar ana shu uch bo'g'indan birortasi ishlamasa, integratsiya to'liq samara bermaydi.

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki, kriminologik tadqiqotlar va ta'lim integratsiyasi nafaqat akademik tizim ichidagi ichki ehtiyoj, balki kengroq ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki kriminologik bilimlarning sifatli o'zlashtirilishi kelgusida jinoyatchilik profilaktikasi, huquqbuzarlik sabablarini aniqlash, alohida toifadagi shaxslarni tavsiflash, hududiy kriminogen vaziyatni baholash va ijtimoiy xavfsizlik choralari ishlab chiqishda bevosita namoyon bo'ladi. Demak, ta'limdagi integratsiya darajasi uzoq istiqbolda amaliy kriminologiya sifatiga, u orqali esa ijtimoiy xavfsizlik tizimiga ta'sir etadi. Shu sababli mazkur muammo tor akademik muammo sifatida emas, balki strategik ilmiy-amaliy masala sifatida ko'rilishi zarur.

Mazkur maqola asosan nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda aniqlangan xulosalar empirik kuzatuvlar, ekspert so'rovlari, o'quv dasturlari monitoringi, talaba (kursant)lar va professor-o'qituvchilar bilan intervyular, shuningdek qiyosiy institutsional tadqiqotlar bilan yanada boyitilishi mumkin. Shu ma'noda, maqola yakuniy hukm emas, balki keyingi ilmiy izlanishlar uchun konseptual platforma vazifasini bajaradi. Bu esa uning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, yangi empirik tadqiqot yo'nalishlarini belgilash orqali ilmiy muhokama maydonini kengaytiradi.

Mazkur maqolada kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasidagi muammolar nazariy-metodologik va ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kriminologik ta'limning samaradorligi faqat o'quv materiallari hajmi yoki nazariy tushunchalarning bayoni bilan emas, balki ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim mazmuni, metodlari va akademik faoliyat shakllariga qay darajada singdirilgani bilan ham belgilanadi. Shu bois kriminologik tadqiqotlar va ta'lim o'rtasidagi integratsiya bugungi kunda fakultativ yoki ikkilamchi masala emas, balki kriminologiya fanining rivojlanishi, zamonaviy mutaxassis tayyorlash sifati va jinoyatchilikning oldini olish samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlillar asosida aniqlandiki, mazkur integratsiya jarayonida mavjud muammolar tasodifiy yoki faqat texnik xarakterdagi kamchiliklar emas. Ular tizimli xususiyatga ega bo'lib, ilmiy natijalarni ta'limga joriy etish mexanizmlarining sustligi, o'qitish metodlarining tadqiqotga yetarli yo'naltirilmaganligi, o'quv mazmunining ilmiy yangiliklardan ortda qolishi, talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish platformalarining cheklanganligi hamda analitik va tadqiqiy kompetensiyalarning to'liq shakllanmasligida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, kriminologik ta'lim va ilmiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikda uzilish mavjud bo'lib, bu uzilish bilimning yaratilishi, uzatilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zanjiriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqola doirasida quyidagi mualliflik ilmiy ta'rifni ilgari surish mumkin: ***kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan integratsiyasi*** – bu kriminologik ilmiy natijalarni tizimli ravishda o'quv mazmuni, o'qitish metodlari va akademik faoliyat shakllariga singdirish hamda ularni talabaning kasbiy-analitik kompetensiyasiga aylantirishga qaratilgan uzluksiz akademik jarayon. Ushbu ta'rif integratsiyani oddiy "ilmiy materialdan foydalanish" sifatida emas, balki ko'p bosqichli va natijaga yo'naltirilgan mexanizm sifatida tushunishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bir qator ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surildi. *Birinchi*dan, kriminologiya bo'yicha o'quv dasturlarini davriy ravishda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida yangilab borish zarur.

Ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati va pedagogik faoliyatini o'zaro uyg'unlashtiruvchi mexanizmlar kuchaytirilishi lozim. *Uchinchidan*, talaba (kursant)larni ilmiy to'garaklar, kichik-tadqiqotlar, tanlovlar (*"Kriminologiya bilimdoni" tanlovi*), ma'lumotlar tahlili, amaliy kuzatuvlar va ilmiy konferensiyalar orqali kriminologik tadqiqot faoliyatiga kengroq jalb etish maqsadga muvofiq. *To'rtinchidan*, ta'lim jarayonida **case study (muammoli holat tahlili)**, davlat rahbariyatiga kiritiladigan axborot-tahliliy hujjatlar, tahliliy sharh, kriminologik prognozlash va tadqiqot loyihalari asosida o'qitish elementlarini keng joriy etish zarur. *Beshinchidan*, kriminologik ta'lim sifati faqat nazariy o'zlashtirish bilan emas, balki talaba (kursant)ning mustaqil tahlil, ilmiy baholash va amaliy tavsiya ishlab chiqish salohiyati bilan baholanishi kerak.

Shuningdek, mazkur maqola keyingi tadqiqotlar uchun ham yo'nalish beradi. Xususan,

kelgusida kriminologik ta'limning amaldagi holatini empirik o'rganish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkazish, o'quv dasturlarini monitoring qilish va turli ta'lim muassasalarida integratsiya darajasini qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa ushbu nazariy maqolada ilgari surilgan xulosalarning amaliy tasdig'ini kuchaytiradi.

Yakuniy ilmiy xulosa sifatida aytish mumkinki, kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasidagi muammolarni bartaraf etish zamonaviy kriminologik ta'limni rivojlantirishning ustuvor shartidir. Bunday integratsiya ta'minlangan taqdirdagina kriminologiya fani nazariy bilimlar tizimidan amaliy-tahliliy va prognostik salohiyatga ega bo'lgan zamonaviy kuchli akademik yo'nalishga aylanadi. Shu ma'noda, ta'lim va tadqiqot birligi kriminologik fan taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son farmoni.
2. Siegel L. J. Criminology. 8th ed. Boston: Cengage Learning, 2023. – P. 4–7.
3. Altbach P. G., Reisberg L., Rumbley L. Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. Paris: UNESCO Publishing, 2009.
4. Schneider H. J. Kriminologie. Berlin: De Gruyter, 2015. – P. 21–24.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori

